

Fan: Biologiya**Sinf: 10-sinf**

Loyiha ishi mavzusi: O'simliklarni turli muhit sharoitida o'stirib o'rganamiz va o'z tavsiyalarimizni beramiz.

Nº	Baholanadigan ko'nikma	Namuna
1	Mavzu asosida maqsadni belgilash va reja tuza olish.	"O'simliklarni turli muhit sharoitida o'stirib o'rganamiz va o'z tavsiyalarimizni beramiz" mavzusi asosida shakllantirilgan jamoa bilan kelishgan holda maqsadni belgilang va reja tuzing.
2	Reja asosida jamoada vazifalarni taqsimlay olish.	Tuzilgan reja asosida jamoa a'zolari o'rtasida vazifalarni taqsimlang va vaqtini belgilang.
3	Berilgan mavzu yuzasidan izlanadi, kuzatadi, ma'lumot to'playdi, taqdimotning xomaki nusxasini tayyorlaydi va to'plangan ma'lumotlar asosida to'g'ri xulosa chiqara oladi.	Reja asosida ishlarni tashkil eting, ma'lumotlarni to'plang, tahrirlang, o'qituvchi tavsiyasi asosida o'zgartirish kriting va taqdimot nusxasini tayyorlang.
4	Fan ustozining ko'magisiz, faqat yo'nalish bo'yicha maslahatlar asosida mustaqil izlana oladi. Ma'lumotlarni tahrirlaydi, tanqidiy fikr yuritib, qaror qabul qiladi va xulosa chiqara oladi. Taqdimotning asl nusxasini tayyorlaydi.	Fan ustozidan faqat yo'llanma oling, lekin bevosita ko'rsatma olmang. Mustaqil ishlashga harakat qiling. Tashqi ekspertlardan ham fikr oling. To'plangan ma'lumotlar asosida, jamoa bilan kelishgan holda, xulosa chiqaring. Bir-biringizni fikringizni eshiting va taqsimlangan vazifalarni to'g'ri bajargan sheringizingizni qo'llab-quvvatlang. Taqdimotni to'liq mavzuni qamrab olishiga e'tibor bering.
5	Bajarilgan ishlarning taqdimotini namoyish qila oladi	Bajarilgan ishlarni asosida taqdimot tayyorlang va mavzuni tizimli ravishda ilmiy asoslang. Taqdimotni jamoa bilan birgalikda namoyish eting.

Loyiha ishini baholash mezoni

Nº	Baholanadigan ko'nikma	Diskriptorlar
1	Mavzu asosida maqsadni belgilash va reja tuza olish. 5 ball	"O'simliklarni turli muhit sharoitida o'stirib o'rganamiz va o'z tavsiyalarimizni beramiz" mavzusi asosida shakllantirilgan jamoa bilan kelishgan holda maqsadni belgilagan bo'lsa- 2 ball Rejani to'g'ri tuzgan bo'lsa -3 ball
2	Reja asosida jamoada vazifalarni taqsimlay olish. 5 ball	Tuzilgan reja asosida jamoa a'zolari o'rtasida vazifalar to'g'ri taqsimlangan bo'lsa-3 ball Vaqtni to'g'ri belgilagan bo'lsa-2 ball
3	Berilgan mavzu yuzasidan izlanadi, kuzatadi, ma'lumot to'playdi, taqdimotga tayyorgarlik ko'radi va to'plangan ma'lumotlar asosida xulosa chiqara oladi. 5 ball	Reja asosida ishlarni tashkil etilib, ma'lumotlar to'plangan bo'lsa-2 ball o'qituvchi tavsiyasini olib, taqdimotning xomaki nusxasini tayyorlagan bo'lsa-3 ball
4	Fan ustozining ko'magisiz, faqat yo'nalish bo'yicha maslahatlar asosida mustaqil izlana oladi, tahrirlaydi, tanqidiy fikr yuritib qaror qabul qiladi va xulosa chiqara oladi. Taqdimotning asl nusxasini tayyorlaydi. 5 ball	Mustaqil ishlangan bo'lsa-2 ball To'plangan ma'lumotlar asosida, jamoa bilan kelishgan holda to'g'ri xulosa chiqarilgan bo'lsa-3 ball
5	To'plagan ma'lumotlari asosida taqdimot tayyorlay oladi. 5 ball	Guruh bilan birligida to'plagan ma'lumotlari asosida "Power point" dasturi bo'yicha yoki "Lepbook" ko'rinishida taqdimot tayyorlagan bo'lsa – 3 ball Taqdimotda ilmiy va orfografik xatolar bo'lmasa – 2 ball

6	Bajarilgan ishlarning taqdimotini namoyish qila oladi 5 ball	Bajarilgan ishlar asosida taqdimotni tizimli ravishda, ilmiy asoslاب, ravon nutq orqali estetik qoidalarga rioya qilgan holda namoyish etilsa- 5 ball
	Jami 30 ball	